

## IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA LINGVOFONATSIYA

Xamrakułova Guluzra Dilmuradovna

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada lingvofonatsiya onomatopeyaning bir turi ekanligi misollar orqali yoritib beriladi. Inson ruhiyati va tabiat tasvirlaridagi uyg'unlikni ta'minlashda inson nutqiga oid tovushlarni tashqi muhitga ko'chirilishi ko'rib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *lingvofonatsiya, onomatopeya, zoofonatsiya, antropofonatsiya, naturafonatsiya, texnofonatsiya, tasviriy-motivlangan leksika.*

| Onomatopeya –fonetik jihatdan biror-bir tovushga taqlid qilishni o'rganadi. Tovushga taqlid so'zlar bilan birga ulardan yasalgan boshqa so'z turkumiga oid so'zlarni ham onomatopeyaga kiritish mumkin. Tillarni rivojlanishi va taraqqiy etishida onomatopeyaning ahamiyati beqiyos. Masalan, yapon tilida onomatopeyalar keng qo'llanadi. Ularda boshqa tilda uchramaydigan so'zlar mavjud. Jumladan, tovushga taqlid qilishda kuchli shamolga *xyuyu-xyuyu*, shabadaga *soyosoyo* so'zlari ishlatiladi.

Onomatiya haqida tilshunoslikda turlicha fikrlar ilgari suriladi. A.N.Tixonov onomatoplarni lesik ma'noga ega bo'lgan mustaqil so'zlardir, chunki ular til orqali axborotni anglatadi deb ta'kidlaydi. Turli xil tovushlarga taqlidni tadqiq qilish dastlab, qadimgi Grek stoiklari maktabiga oid bo'lib, ular tovush va mazmun aloqadorligini tovushga taqlid (inson faoliyati natijasida tovushlar) asosida tushuntirganlar qilishgan.<sup>33</sup>

Badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda bilvosita tovushga taqlid onomatoplar katta ahamiyatga ega. Yozuvchi va shoirlar ma'lum obrazni yaratish maqsadida, faqat ularning o'zlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ochishda, ma'lum vaziyatdagi inson holatini tasvirlashda turli tovushlarga taqlid so'zlaridan foydalanadi.

---

<sup>33</sup>Тишина Е.В. Русская ониматопея: диахронный и синхронный аспекты изучения. Дисс.кан.фил. наук. - Волгоград, 2010. -С.9

O'zbek tilidagi onomatoplar tematik jihatdan besh turga bo'linadi:

Jadval:

№	Tematik guruh	Leksemalar
1	Lingvofonatsiya	Ming'irlamoq, g'o'ng'illamoq, sayramoq, do'ng'illamoq
2	Zoofonatsiya	Ari, qo'ng'iz, g'ag'alamoq, turna
3	Antropofonatsiya	Yo'talmoq, hoholamoq, hihilamoq, xirillamoq, shap-shap, qars-qurs
4	Naturafonatsiya	Shildir-shildir, guvullamoq, momogulduroq
5	Texnofonatsiya	Viz-viz, g'ir-g'ir, jizillamoq (qizigan temir)

Ushbu maqolamizda biz o'zbek tilidagi onomatiyalarni lingvofonotsiya turini o'rganish uchun Iqbol Mirzoning she'rlarini tanladik.

Iqbol Mirzoning she'larida onomatiyaning lingvofonatsiya turiga oid, ya'ni faqat inson nutqiga xos bo'lgan tovushlarga taqlid so'zlar uchraydi. Masalan,

*Qayg'u qoldi ko'zingdek mayin,*

*Ko'rdim sochdek to'zg'in iforni.*

***Shivirladim** mahzun jilmayib,*

*- Aytin, sizga keragim bormi?*

(Ko'zlariga termulsaydim. 206-bet.)

Shoir she'rdagi *shivirladim* so'zini ishlatilishi o'sha vaziyatga aynan to'g'ri keladi, chunki mahzun jilmayganda faqat shivirlab gapiriladi. She'rning "Xazonrezgi" deb nomlanishi ham *shivirlamoq* so'zini ishlatilishini taqozo qiladi, yerga tushgan xazonlar oyoq ostida shivirlaydi, yog'ayotgan yomg'ir ham shivirlaydi; atrofda sokinlik, jimlik, faqat tabiat nimanidir shivirlaydi...

*Meni yolg'iz ko'rib, **ingraydi** eshik,*

*Seskanib tushadi suvrat va devor.*

*Muzxona silkinib yig'laydi – eshit,*

*Hamma narsa seni kutar intizor*

(Ko'zlariga termulsaydim. 204-bet.)

Ushbu she'rdagi yorga intizor ekanligini kuchaytirish maqsadida jonlantirishdan (istiora) foydalangan. Eshikning "g'iyq" qilib ochilishini "ingraydi eshik", muzxonaning "dirillab" qimirlashini "silkinib yig'laydi" deb go'zal o'xshatib ifodalagan. Narsalarning tabiiy tovush chiqarishini istiora yordamida haqiqatdan jonlantirib yuborgan.

*Bulutlar uchrashdi chaqmoqlar otib,*

*Chaqmoq – sog'inchlarning oydin gulimi?*

*Yomg'ir **shivirladi** to'kilayotib:*

*Visol – muhabbatning go'zal o'limi.*

(Ko'zlariga termulsaydim. 208-bet.)

Ushbu she'rda ham yomg'ir yog'ayotganda chiqadigan tovush shivirlashga o'xshatilayapti. Yoki, quyidagi she'rdagi shamol tasvirini ko'raylik:

Zerikib, osmonga uflagan shamol  
O'ynab, qoqigulni puflagan shamol,  
Tolning kovagida uxlagan shamol,  
Meni unutmagin, qaytar kunim bor.

(Ko'zlaringga termulsaydim. 121-bet.)

Yuqoridagi she'rning birinchi misrasida inson nutqiga xos bo'lgan "uflamoq", ikkinchi misrasida ishlatilgan "puflamoq" so'zlaridagi shamol tasviri shoir qahramoni ruhiyatini ifoda etadi. Shoir misralar davomida o'quvchiga shamolning harakatlarini lirik qahramon ruhiyatiga mos holatdakisini tanlab tasvirlaydi.

Uyg'onsam agar, men ham—  
Jilmayaman pok, halol.  
...Tashqarida go'dakdek  
Chinqirab yig'lar shamol.

(Ko'zlaringga termulsaydim. 159-bet.)

Umuman olganda, shamol obrazini tasvirlash shoir she'riyatida alohida o'rin tutganini kuzatamiz. Yuqorida misralarda chaqaloq nutqiga xos bo'lgan tovush tabiat hodisasi sifatida tasvirlanadi. Odatda sog'lom chaqaloq chinqirab yig'laydi. Uning chinqirig'i kattalar tomonidan istak, isyon sifatida tushuniladi. Ijodkor bu yerda yuqoridagi she'rda ko'rib o'tganlarimiz "puflamoq", "uflamoq" holatidan farqliroq shamol tasvirini badiiy mahorat bilan yaratmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lingvofonatsiya onomatopeyaning bir turi sifatida insonning nutqi, uning o'ziga xos xususiyatlari, so'zlash manerasi, ovozning turlari biror-bir tovushga fonetik jihatdan taqlid qiluvchi so'zlar hisoblanadi. Shu jumladan, taqlid so'zlar va ulardan yasalgan boshqa so'z turkumiga oid so'zlarni ham kiritiladi. O'zbek tilidagi lingvofonatsiyalarga biror so'z turkumlariga oid bo'lgan tovushga taqlid so'zlar, tovushga taqlid so'zlardan yasalgan so'zlar, maxsus lug'at belgisiga ega undov so'zlar, tovush obraziga ega bo'lgan tasviriy-motivlangan leksika, qadimda tovushga taqlid so'zni bildirgan so'zlar kiradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нурмонова. Гапхакидасинтактичназариялар. – Тошкент: О'qiyuvchi, 1988. –99 b.
2. Қуронолд., МамажоновЗ., ШералиеваМ. Адабиётшуносликлуғати.–Тошкент: Akademnashr, 2010. –397 b.
3. ИқболМирзо. Сизникуйлайман. – Toshkent: Шарқ, 2007. – 368 б
4. ИқболМирзо. Ko'zlaringga termulsaydim. –Toshkent:Sharq,2020. – 246 b
5. ДегтарёвВ.И. Основыобщейграмматики. –Ростов, Рост. 1973. –С.255.
6. Содикова., Абдуазизова., Ирискулов. М. Тилшуносликкакириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1981. –Б.224.

7. Тишина Е. В. Русская орфография: диахронный и синхронный аспекты изучения. Дисс. канд. фил. наук. - Волгоград, 2010. - С. 9
8. Турсунова О. Ўзбек тилининг бирликларининг поэтик қониятлари. Фил. фан. бўйича фал. доктори (PhD) дисс. Тошкент, 2019. - Б. 130
10. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педагогические технологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
11. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
12. Исраилова, М. Н. (2022, March). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 414).
13. Israilova, M. N. (2017). New Pedagogical Technologies of Studying Latin in Medical Schools. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
14. Israilova, M. N., & Yuldasheva, D. Y. (2021). PECULIARITIES OF TEACHING LATIN LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
15. Исраилова, М. Н. (2021, November). ТЕХНОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТЫНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).
16. Исраилова, М. Н., Юлдашева, Д. Ю., & Сайфуллаева, Л. С. (2021). Педагогические технологии на занятиях по латинскому языку в медицинском вузе. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 47-49.
17. Исраилова, М. Н. (2019). Принципы преподавания латинского языка в медицинском вузе. *Academy*, (12 (51)), 58-60.
18. Исраилова, М. Н. (2022, August). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ: Исраилова Махсуда Нигматуллаевна, Доцент кафедры Латинского языка ТГСИ. In *Научно-практическая конференция*.
19. Исраилова, М. Н., & Сайфуллаева, Л. С. (2022, August). ТИББИЁТ ТАЪЛИМ МУАССАСИДА ЛАТЫН ТИЛИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНИШ: Исраилова МН доцент PhD, Сайфуллаева ЛС ассистент Тошкент давлат стоматология институти Sayfullayevalola1@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.
20. Исраилова, М. Н. (2022, August). ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТЫНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ

ИНТЕЛЕКТУАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ: Исраилова МН, доц. PhD Ташкентский Государственный Стоматологический Институт oyudinboymatova80@gmail.com. In *Научно-практическая конференция*.

21. Исраилова, М. Н. (2018). ИННОВАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 68-69).

22. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Юлдашева, Д. Ю. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 422-425.

23. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Сайфуллаева, Л. С. (2022). ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 426-429.

24. Исмоилова, М. Н., & Кобиров, К. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 60-62.

25. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni. *Общество и инновации*, 4(2), 148-151.

26. Nig'matillayevna, I. M. (2022). BENEFITS OF USING VIDEO IN ELT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 7-12.

27. Nigmatullaevna, I. M. THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING MEDICAL LATIN.

жери Контакттыктык, Ж. Кызыл-Кыя шаарынын участкалык шайлоо комиссияларынын сапаттык курамы. *Восток*, 14, 1.

28. Беляева, Н. Л. (2021). ШКОЛЬНАЯ СЛУЖБА ПРИМИРЕНИЯ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФОРМА ПРОФИЛАКТИКИ. In *БЕЗОПАСНОЕ ДЕТСТВО КАК ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ* (pp. 27-30).

29. Sabirovich, R. M., Mahmudqulovich, I. Z., Mamirjon ogli, O. M., & Saydaliyevich, U. S. (2022). KONSTITUTSIYA-YOSHLARNI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 2010-2015.

30. Рузибаев, М. С., & Розибоева, Ю. С. (2023). ДЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ-«ГЕРОЙ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ». *Finland International*

*Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1325-1329.*

31. Рузибаев, М. С., & Розмбаева, Ю. С. (2023). ОТКРЫТЫЙ УРОК НА ТЕМУ:" СКАЗКИ ПУШКИНА". *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 128-137.*